

O‘TKIR HOSHIMOVNING “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANIDAGI OBRAZLAR TAHLILI

Rizonova Mahorat G‘ofur qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20280424>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanidagi bosh va yordamchi obrazlar tahlil qilinadi. Unda qahramonlarning ichki kechinmalari, xarakteri, nutqi ochib beriladi. Shu bilan birgalikda “O‘zbek ishi”, “Afg‘on urushi” fojialari o‘ziga xos tarzda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: roman, obraz, “Afg‘on urushi”, “O‘zbek ishi”, konflikt, retrospeksiya.

Аннотация. В данной статье анализируются главные и второстепенные образы в романе Уткира Хошимова “Тушда кечган умрлар”. В ней раскрываются внутренние переживания героев, их характер и речь. Вместе с тем своеобразно освещаются трагедии “узбекского дела” и Афганской войны.

Ключевые слова: роман, образ, поэт в прозе, “Афганской войны”, “узбекское дело”, конфликт, ретроспекция.

Annotation. This article analyzes the main and secondary characters in O‘tkir Hoshimov’s novel “Tushda kechgan umrlar.” It explores the characters’ inner experiences, personalities, and speech. At the same time, the tragedies of the “Uzbek case” and the Afghan War are presented in a distinctive way.

Keywords: novel, character, poet in prose, “Afghan war”, “Uzbek case”, conflict, retrospection.

KIRISH

O‘tkir Hoshimov o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega, inson ruhiyati va jamiyatdagi muammolarni chuqur tahlil qilgan ijodkor hisoblanadi. Umarali Normatov: “Adabiyot dunyosida “nasrdagi tarona”, “nasrdagi shoir” atamalari bor. XX asr yangi o‘zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy haqli ravishda prozaning shoiri deb nom olgan edi. 60-yillar zamonaviy adabiyotida O‘tkir Hoshimovni ham nasrdagi shoir, yetuk asarlarini esa nasrdagi qo‘shiq, tarona deb atash mumkin”, - deya ta’riflaydi.[1]

Uning asarlarida inson taqdiri, ruhiy kechinmalari, hayot sinovlari, tarixda sodir bo‘lgan urush fojialari o‘ziga xos tarzda badiiy talqin etiladi. Yozuvchining ushbu mavzularda yoritilgan va kitobsevarlar qalbidan chuqur o‘rin egallay olgan asarlaridan biri “Tushda kechgan umrlar” romanidir. Bu romanda voqealar qamrovi keng yoritilgan.

Jumladan, 30-yillarning “qatag‘onlik” davrlari, 80-yillarda “Afg‘on urushi” ning ta’sirli manzaralari va shu yillarda amalga oshirilgan “o‘zbek ishi” mojarolari, adolatsizlik, muhabbat va insoniylik mavzulari yoritilib berilgan.

Afg‘on urushi – 1979-1989-yillarda Afg‘oniston hududida bo‘lib o‘tgan yirik qurolli mojarodir. 1978-yilda Afg‘onistonda davlat to‘ntarishi yuz berib, hukumat siyosatiga qarshi xalq noroziligi kuchaydi. 1979-yil dekabrda Sovet qo‘shinlari Afg‘onistonga kirdi. Urush asosan tog‘li hududlarda kechdi va juda murakkab bo‘ldi.

Millionlab odamlar halok bo'ldi yoki yaralandi. Urush qatnashchilarining ko'pchiligi ruhiy jarohatlar bilan qaytdi.

O'tkir Hoshimov asarlarining asosiy kuchi obrazlar tizimining hayotiyligi hamda ishonarliligidir. U yaratgan obrazlarni haddan tashqari ideal yokida juda yomon ko'rsatmaydi, balki ularni shunchaki hayotdagi oddiy insonlar sifatida tasvirlaydi. Shu tufayli uning qahramonlari kitob o'quvchi uchun yaqin va sevimli bo'ladi. "Tushda kechgan umrlar" romanida yozuvchi avval yaratgan "Ikki eshik orasi" romani kabi voqealar bir nechta bosh qahramonlar tilidan hikoya qilinadi. Rustam, Shahnoza, Qurbonoy xola, komissar Soat G'aniyev kabi obrazlar atrofida voqealar sodir bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida romandagi obrazlar tizimini o'rganish maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Asarni tahlil qilishda psixologik metodi qo'llanildi. Qahramonlarning ichki monologlari, ruhiy holatlari va kechinmalari chuqur o'rganildi. Ayniqsa, Rustam obrazining urushdan keyingi ruhiy holati tahlil qilindi.

Uning tushlari, xotiralari va iztiroblari asarning asosiy g'oyasini ochishga xizmat qilishi ko'rsatildi.

Tarixiy yondashuv metodi yordamida asarda aks etgan Afg'on urushi va "O'zbek ishi" bilan bog'liq voqealar o'rganildi. Ushbu tarixiy jarayonlarning qahramonlar taqdiriga ta'siri tahlil qilindi.

Asarda o'tmishga qaytish bilan bog'liq voqealar alohida o'rganildi.

Retrospeksiya usuli orqali qahramonlarning o'tmishi ochib berilishi tahlil qilindi. Bu usulning asar kompozitsiyasidagi o'rni yoritildi.

NATIJALAR VA TAHLIL

"Obraz" deganda asarda ishtirok etuvchi barcha insonlar hayoti tasviri tushuniladi. Asar syujetida turli xil voqealarga "yuk" tashuvchi shaxslar - asosiy obraz, yordamchi obrazlar bo'ladi. [2. 51-bet]

Rustam - romanning asosiy qahramoni bo'lib, qalbi toza, har qanday qiyin vaziyatlarda yaqin kishilariga yordam qo'lini cho'zishga, ota-onasi uchun borini berishga tayyor bo'lgan mehribon farzand, Afg'on urushida qatnashgan, hayotning achchiq sinovlarini boshdan kechirgan inson sifatida yaratilgan. U boshidan o'tkazgan jarayonlarni, ya'ni urushga ketishdan avval, urush jarayoni va urushdan keyingi hayotini o'zining shaxsiy kundaligiga muhrlab qo'yadi. Kundalikni yozish jarayonida yozuvchi ichki monologlardan unumli foydalanadi. Rustam urushda Temur, Xayriddin, Sasha ismli do'stlar orttiradi. Biroq bularning barchasining o'limiga guvoh bo'ladi. U yerdan jismoniy holatiga, balki ruhiy holatiga zarba yetgan holda qaytib keladi. Bir necha o'rinlarda nafaqat o'z-o'zi bilan ichki konfliktlarga, shu bilan birgalikda shaxslararo konfliktlarga borib qoladi. Otasi Shomatov Shomansur "pora olish" bo'yicha nohaq ayblanib, o'n yil qamoq jazosiga hukm qilinganini eshitgach, qo'ldan kelgan barcha ishni qiladi: gazetaga maqola yozdirtiradi, yuqori tashkilotlarga murojaat qiladi, ammo bularning barchasi befoyda ketadi.

Rustam ruhiy holatidagi o'zgarishlar tufayli to'ydan keyin Shahnoza bilan tez-tez urishib qolishadi. Bu vaziyatlar joniga tekkach o'z joniga qasd qiladi. "*Tamom! Hammasi tamom bo'ldi...*"

Ajab... Yuragim nega buncha osoyishta? Qilt etsa-chi? E-ha... Axir... Men endi yo'qman-ku. Bu dunyoda borligingdan kim naf ko'rdi-yu, yo'qligingdan kimga ziyon? Oyimga achinyapman. Dadamga... Shahnozaga... Rozi bo'linglar... Onajon... Meni kechiring, oyi!" [3. 331-bet]

Shahnoza - asarda muhabbat va sadoqat timsoli sifatida namoyon bo'ladi. U Rustamni tushunishga harakat qiladigan, har qanday qiyin vaziyatlarda yelkadosh bo'ladigan, unga mehr ko'rsatadigan obrazdir. Shahnoza orqali yozuvchi insoniy munosabatlarning go'zalligini ko'rsatadi, Rustam urushga ketganda vafodorlik bilan 2 yil intizor bo'lib kutadi. Rustamning o'limi unga juda yomon ta'sir qiladi : *"Nega? - dedi ingrab. - Rustam akam nega o'ldi? Yaxshi bo'lgani uchunmi?"*

Qurbonoy - oddiy o'zbek ayoli timsolidir. U mehribon, sabrli, hayotning turli sinovlariga bardosh bera oladigan kuchli inson sifatida tasvirlanadi. Bu obraz orqali yozuvchi o'zbek ayollariga xos bo'lgan fazilatlarini yoritadi. U otasi To'laganning "Yapon razvedkasi" bilan aloqasi bor degan tuhmat bilan olib ketishlarida, komissar onasi Fotimaning o'limiga sabab bo'lganida, turmushga chiqib, 2 yashar qizi Umida bilan ajrashib yolg'iz qolganida ham sabr bilan hammasini yengib o'tganini ko'rish mumkin. Shifokorlar unga "gastrit" kasalini tashxis qo'yib, uni shifoxonda yotishga majbur qilganda ham har kunlik ishi bo'lgan farroshlikni tashlab ketishdan xavotir oladi: *"Aparaysa qilarmish! Aytishga oson. Aslida-ku, har kimning joni Xudoning omonati.*

Ertami-kechmi oladi omonatini. Boring, ana tig'ning tagidan omon-eson qutulib chiqdi ham... Bir yilgacha yarimjon bo'lib yuradimi? Ko'chani kim supuradi? Bir emas, ikkita to'rt qavatli "do'm"ning zinasini kim yuvadi?" [3. 4-5-bet]

Komissar Soat G'aniyev - sovet hukumat siyosatini amalga oshiruvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. U orqali yozuvchi o'sha davrdagi bosim, qo'rquv va adolatsizlik muhitini ko'rsatadi.

Komissar hukumatni ro'kach qilib, chirkin ishlarni amalga oshiradi.

Yoshlikda kechirgan voqealar tufayli rahmsiz insonga aylanadi. Hattoki o'z bolalari Mauzer va Mels ham undan yuz o'girib ketadi. Mauzer mast qolatda urishib qolib, oilasi bilan boshqa uyga ko'chib ketadi va jurnalist sifatida tuzumni qoralab bir qancha maqolalar chiqaradi. Mels esa ish yuzasidan: *"Pokistonga stajirovkaga yubormoqchi. Uch oyga"*, - deb aldab ketadi.

Angliya konsulxonasiga siyosiy boshpana so'rab boradi va u yerda Sovet Ittifoqida erkinlik yo'qligini aytib, rasmiy bayonot beradi, sovet fuqaroligidan voz kechishini aytadi.

Komissar eng yaxshi ko'rgan o'g'lidan ham voz kechadi, xotini Nazira o'ladi, yomon yo'llarga kirib qolib aldanadi.

Shundan so'ng bir yuraksiz, ya'ni Rustam tilidan aytganda "Yovuz Ruh"ga aylanib qoladi.

O'tkir Hoshimov ushbu asarida retrospeksiya usulidan foydalangan.

Retrospeksiya - badiiy asarda voqealarni hozirgi zamondan o'tmishga qaytish orqali tasvirlash usuli hisoblanadi. Bu usul yordamida yozuvchi qahramonlarning avvalgi hayoti, boshidan kechirgan voqealari va ruhiy holatini ochib beradi. Masalan, farrosh Qurbonoy xola yoki bosh qahramon Rustamning hayot yo'li orqali inson taqdiridagi keskin burilishlar ko'rsatilgan.[4.]

MUHOKAMA

Ushbu romanning bosh obrazlarini tahlil qilish jaroyonida yozuvchining obraz yaratishdagi yuksak badiiy mahorati o'rganilib chiqildi.

Asardagi har bir obraz muayyan g'oya va ma'naviy mazmumni ifodalashga xizmat qilgani aniqlandi. Ushbu jihatdan roman o'zbek adabiyotining muhim badiiy namunalaridan biri sifatida baholandi.

XULOSA

Inson umrida ba'zi voqealar xuddi tushda ko'rgandek bir lahzada o'tib ketadi.

Rustanning otasi xat jo'natganida shunday gaplarni yozadi: *“O'ylab qarasam, o'tgan umrim - umr emas, tush ekan. Go'yo men esimni tanib-tanimay birov uyqu dori ichirgan-u tush ko'rib yuraverganman: goh shirin, goh xatarli tush ko'rib”*. O'tkir Hoshimov asarlarida obrazlar tizimi yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan.

Yozuvchi har bir obraz orqali chuqur ma'no va g'oyani ifodalaydi. Uning qahramonlari oddiy insonlar bo'lsa-da, ular orqali katta ijtimoiy muammolar yoritiladi. Ayniqsa, “Tushda kechgan umrlar” romanidagi obrazlar orqali urush, muhabbat va insoniylik masalalari chuqur ochib beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umarali Normatov. “Nasrdagi shoir yohud ruhiyatt manzillari”. <https://yuz.uz/uz/news/nasrdagi-shoir-yoxud-ruhiyat-manzillari>
2. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. T-O'zbekiston-2002-yil.
3. O'tkir Hoshimov. “Tushda kechgan umrlar”. Toshkent- 2023.
4. E. S. Achilova, U. N. Xodjamqulov “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ROMANINING SYUJET, OBRAZ, USLUB XUSUSIYATLARI” cyberleninka.ru/article/n/tushda-kechgan-umrlar-romani